

JINOYAT HUQUQI NORMALARINING RAQOBATI VA JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH

Ismoilov Shoxabbos G'ayratjon o'g'li

Buxoro tuman prokurorining o'rinbosari

E-mail: shoxa.ismailov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21254182>

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida muayyan jinoyatning har qanday holatini qamrab oluvchi jinoyat tarkiblari hamda shu jinoyatning ayrim holatlarini aks ettiruvchi tarkiblar mavjud. Birinchisi umumiy normada bo'lsa, ikkinchisi esa maxsus normada bayon etiladi. Bunda maxsus normaning umumiy norma bilan yonma-yon mavjud bo'lishi faqat shu holda amaliy ma'noga ega bo'ladiki, u jinoiy javobgarlik masalalarini umumiy normaga nisbatan boshqacharoq hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muayyan qilmishlarni sodir etishning alohida holatlari uchun javobgarlik belgilaydigan jinoyat tarkiblari kiritilsa va bu qilmishlarni sodir etishning har qanday holati boshqa jinoyat tarkiblarida aks etgan bo'lsa, u holda umumiy normadan maxsus normaga kiritilgan qismi chiqarib tashlanadi. Bunday holatda tegishli jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olgan holda jazoni differentsiatsiya qilish (o'zgartirish, yumshatish yoki kuchaytirish) zarurati bilan izohlanadi. Natijada qonun chiqaruvchi nega jinoyat umumiy va maxsus normalar bilan nazarda tutilgan hollarda ustuvorlikni aynan maxsus normaga berishi haqidagi savolga javob paydo bo'ladi va sud qonun chiqaruvchining irodasiga muvofiq aybdorga boshqacha (og'irlashtirilgan yoki engillashtirilgan) jazo tayinlash imkoniyatiga ega bo'lishi maqsad qilingan. Shu tariqa, umumiy va maxsus normalarda aks ettirilgan jinoyat tarkiblarining mazmuni o'zaro raqobatni nazarda tutmaydi.

Fanda ajratib ko'rsatiladigan raqobat turlaridan jinoyat huquqida faqat ikkitasi mavjudligini tan oladi: **umumiy va maxsus normalar raqobati**, hamda **qism va butun raqobatini ko'pchilik olimlar e'tirof etishadi**[1]. Umumiy va maxsus normalar raqobatida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidalari bayon etiladi. Qism va butun raqobatida kvalifikatsiya qilish qoidalari shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jinoyat huquqi normalarining raqobati to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri hech narsa aytilmagan. Biroq O'R JKning 33-moddasi 2-qismida shunday qoida belgilanganki, "Agar shaxs sodir etgan qilmishda ushbu Kodeks Maxsus qismi ayni bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarning alomatlari mavjud bo'lsa, u moddaning og'irroq jazo belgilangan qismi bo'yicha javobgarlikka tortiladi". Boshqacha aytganda, qonunda bir shaxs tomonidan jinoyatda bitta normaning turli qismlarida bilan nazarda tutilgan vaziyat aks ettirilgan. Aynan shunday holat (faqat O'R JK 33-moddasi 2-qismida bayon etilgani bilan cheklanib qolmasdan) jinoyat-huquqi adabiyotlarida **jinoyat huquqi normalarining raqobati** deb qaraladi. Biroq shuni inobatga olish lozimki, jinoyat huquqi normalarining raqobati bir xil hodisa emas.

O'z navbatida, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi normalar raqobati ham bir xil emas. Jinoyat-huquqiy fanda raqobat turlari masalasida turli nuqtai nazarlar mavjud.

Rus olimi L.V.Inogamova-Xegay jinoyat huquqi normalarining raqobatini asosli ravishda quyidagilarni farqlaydi:

jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida jinoyat-huquqiy munosabatni tartibga solishda yuzaga keladigan normalar raqobati;

jazo tayinlashda normalar raqobati;

jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda normalar raqobati;

jazodan ozod qilishda normalar raqobati[2].

V.N. Kudryavsev tarkiblar belgilarining mos kelishi va mos kelmasligi mazmuniga ko'ra farqlanadigan ikki asosiy raqobat turi: umumiy va maxsus normalar raqobati va qism va butun raqobatini ajratib ko'rsatgan[3].

Ayrim boshqa olimlar ham jinoyat huquqi normalari raqobatining faqat shu ikki turi bilan cheklanadilar. Biroq ular umumiy va maxsus normalar raqobatini hamda maxsus normalar raqobatini alohida ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Ba'zi mualliflar esa yuqorida keltirilgan yondashuvlarni birlashtirib, jinoyat huquqi normalari raqobatining quyidagi: umumiy va maxsus normalar raqobati, maxsus normalar raqobati hamda qism va butun raqobati turlarini ko'rsatadilar.

N.K. Semerneva esa eng ko'p uchraydigan raqobat turlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

umumiy va maxsus norma raqobati;

qism va butun raqobati;

asosiy va kvalifikatsiyalangan norma raqobati;

kvalifikatsiyalangan va o'ta kvalifikatsiyalangan norma raqobati;

kvalifikatsiyalangan va imtiyozli norma raqobati;

ikki imtiyozli norma raqobati[4].

V.S. Saveleva ushbu ro'yxatga asosiy va imtiyozli jinoyat tarkiblarini belgilovchi normalar raqobatini ham qo'shadi[5].

Fanda qarashlar xilma-xil bo'lishiga qaramay, barcha tadqiqotchilar umumiy va maxsus normalar raqobatini ajratib ko'rsatish borasida yakdil fikr bildirishgan.

N.F. Kuznesova "Jinoyat kodeksida ham, amaliyotda ham noma'lum bo'lgan "raqobat" tushunchasidan voz kechib, umumiy va maxsus normalar bo'yicha kvalifikatsiya qilishga oid qonunchilik terminologiyasini qo'llash mantiqan to'g'riroq"[6] degan fikrni bildirgan.

Biz ham ushbu fikrga qo'shilgan holda umumiy va maxsus norma raqobati hamda maxsus norma raqobatini ajratilishi maqsadga muvofiq.

Ammo bu holda bir jinoyat nega ikki norma bilan nazarda tutilib, jinoiy javobgarlik faqat ulardan biri bo'yicha yuzaga kelishi haqida savol tug'iladi. Ana shu savolga aynan **"raqobat"** atamasi javob beradi. Garchi O'R JKda "raqobat" atamasi mavjud bo'lmasa-da, bu amaliyotda uni qo'llashga to'sqinlik qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarida "jinoyat-huquqiy normalar raqobati" (normalar raqobati) alohida atama sifatida doim ham mustaqil modda bilan berilmaydi, ammo jinoyatni kvalifikatsiya qilish qoidalari orqali mazmunan to'liq yoritilgan. Amalda sudlar aynan Plenum qarorlariga tayanib normalar raqobatini hal qiladi. Oliy sud Plenum qarorlari sudlar tomonidan qonun normalarini bir xil va to'g'ri qo'llashni ta'minlash maqsadida qabul qilinadi va amaliyotni birxillashtirishda muhim manba hisoblanadi Ular jinoyat normalarining raqobati, kvalifikatsiya va dalillar maqbulligi kabi masalalarni aniqlashda qo'llanadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi

qarori 8-bandining [uchinchi xatboshisida](#) “Qilmish [Jinoyat kodeksining](#) bir necha moddalarida ko’rsatilgan ob’ektga nisbatan sodir etilganda (umumiy va maxsus norma raqobati) jinoyatlar majmui mavjud bo’lmaydi va u maxsus norma bo’yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim”ligi ko’rsatilgan[7].

N.F. Kuznesova Qism va butun raqobatini murakkab jinoyatlarni, jinoyatlar jamlanmasini va yakka jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish doirasiga kiritgan[8]. Biroq bunday yondashuvlar nega ayrim hollarda jinoyat tarkiblari yoki jinoyatlar yutib yuborilishi, nega jinoyatlar majmui mavjud emasligi yoki qilmish yakka, jumladan murakkab jinoyat hisoblanishi haqidagi savolga javob bermaydi.

V.B. Shakin qism va butun raqobatining mavjudligini inkor etadi. Uning fikriga ko’ra, raqobatlashuvchi normalar o’rtasida chuqur o’zaro bog’liqlik mavjud bo’lib, agar ulardan biri qo’llanish vaqtida bekor qilinsa, qolgan norma asosida holatni hal qilish mumkin bo’lar edi[9].

Biroq, A.M. Zasepin fikricha, bu holat qism va butun raqobatiga zid emas. Agar norma-qism bekor qilinsa, norma-butun qo’llaniladi. Agar esa norma-butun bekor qilinsa, boshqa shartlar teng bo’lgan holda, norma qismni qo’llashga to’g’ri keladi, albatta, bunda kvalifikatsiya qisqartirilgan bo’ladi[1].

Ko’pincha maxsus normalar raqobati sifatida quyidagilar: engillashtiruvchi va og’irlashtiruvchi holatlarni nazarda tutuvchi normalar raqobati; faqat engillashtiruvchi holatlarni o’z ichiga olgan normalar raqobati; faqat og’irlashtiruvchi holatlarni o’z ichiga olgan normalar raqobati ko’rsatiladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda engillashtiruvchi holatlarni nazarda tutuvchi normalar umuman maxsus normalar raqobatiga kiritilmaydi.

Biroq maxsus normalar raqobatiga nisbatan boshqa nuqtai nazar ham mavjud. Bizning fikrimizcha, agar javobgarlikni kuchaytiruvchi belgilarni nazarda tutuvchi bir nechta band yoki qismlar raqobat qilsa, eng og’ir belgini o’z ichiga olgan band (yoki qism) qo’llanilishi lozim, shu bilan birga hukmning tavsif qismida qilmishning barcha kvalifikatsiyalovchi belgilari ko’rsatilishi shart.

Albatta, javobgarlikni kuchaytiruvchi belgilarni nazarda tutuvchi bir necha qismlar o’rtasida raqobat bo’lishi mumkin. Biroq bu raqobat faqat bitta jinoyat sodir etilgan va uning kvalifikatsiyalovchi holatlari bir vaqtning o’zida bir moddaning bir nechta qismlarida nazarda tutilgan holdagina yuzaga keladi. Bunday holda ham jinoyat faqat shu moddaning bitta qismi bo’yicha kvalifikatsiya qilinadi. Boshqa hollarda, ya’ni javobgarlikni kuchaytiruvchi belgilarni nazarda tutuvchi bir necha band yoki qismlar o’rtasida raqobat mavjud bo’lmaydi.

Masalan, amaldagi jinoyat qonunchiligida bir moddaning ayni bir qismida nazarda tutilgan bir necha bandlardan qaysini tanlash masalasi umuman qo’yilmaydi. Ularda har biri boshqasida mavjud bo’lmagan belgini o’z ichiga olgan kvalifikatsiyalangan jinoyat tarkiblari nazarda tutilgan bo’ladi. Bu holda gap jinoyat huquqi normalari raqobati haqida emas, balki belgilari o’xshash bo’lgan, bir-biriga yaqin, ammo mustaqil jinoyat tarkiblari haqida bormoqda.

Masalan, qasddan odam o’ldirish JKning 97-moddasi 2-qismining ikki yoki undan ortiq bandlarida nazarda tutilgan kvalifikatsiyalovchi belgilar bilan sodir etilgan bo’lsa, u barcha ushbu bandlar bo’yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shu bilan birga, O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentyabrda 13-sonli “Qasddan odam o’ldirishga oid ishlar bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida”gi qarorining 19-bandida ikkinchi xat boshisiga ko’ra, “agar odam o’ldirish boshqa jinoyatni yashirish yoki uni sodir etishni engillashtirish maqsadida sodir etilgan bo’lsa, u holda

ushbu qilmishni boshqa maqsad yoki motivni nazarda tutuvchi bandlar bilan qo'shimcha ravishda kvalifikatsiya qilish mumkin emas"[10].

Bizning fikrimizcha, mazkur qoida bahsli bo'lib, jinoiy maqsad va motiv Jinoyat kodeksining Maxsus qismida jinoyat sub'ektiv tomonining mustaqil belgilari hisoblanadi va ular bir-birini yutib yuborishi mumkin emas. Bundan tashqari, bitta jinoyat bir vaqtning o'zida bir necha maqsadlarni ko'zlashi mumkin. Agar ularning barchasi Maxsus qism moddasida mavjud bo'lsa, barchasining belgilari bo'lsa, ularning barchasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Affekt holatida va zarur mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda Jinoyat huquqida effekt holatida sodir etilgan jinoyatlarni (O' RJKning 98, 106-moddalari) va zarur mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan jinoyatlarni (O' RJKning 100, 107-moddalari) kvalifikatsiya qilish masalasiga to'xtalib o'tsak, mazkur holatlarda javobgarlikni engillashtiruvchi belgilarni o'z ichiga olgan jinoyat tarkiblari javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgilarni nazarda tutuvchi tarkiblar bilan o'zaro raqobatda turadi. Ko'pincha bu holat **maxsus normalar raqobati** sifatida baholanadi. Bizning fikrimizcha bu holatni maxsus normalar raqobati deb baholash asossizdir. Bu erda effekt holatida yoki zarur mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan jinoyatlar haqidagi normalar mustaqil jinoyat tarkiblarini nazarda tutadi. Ular asosiy jinoyat tarkiblaridan sub'ektiv tomon (affekt holati) yoki qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar (zururiy mudofaa) bilan farq qiladi. Bunday jinoyat tarkiblari jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini qonunda alohida baholash natijasida vujudga kelgan. Shu bois, ular umumiy yoki maxsus normalar bilan raqobat qilmaydi.

Agar jinoyat effekt holatida sodir etilgan bo'lsa, u faqat tegishli modda bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Agar jinoyat zarur mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan bo'lsa ham, qilmish faqat shu holatni nazarda tutuvchi modda bo'yicha baholanishi kerak.

Shuningdek, effekt holatida sodir etilgan jinoyatni avval umumiy norma bo'yicha, keyin esa maxsus norma bo'yicha qayta kvalifikatsiya qilish amaliyoti jinoyat huquqi nazariyasiga ham, qonun mazmuniga ham ziddir. Jinoyat huquqi normalarining raqobati jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy hodisa bo'lib, uning mohiyati bitta ijtimoiy xavfli qilmishning ikki yoki undan ortiq jinoyat-huquqiy normalarda nazarda tutilganligi bilan izohlanadi, biroq jinoiy javobgarlik faqat ulardan biri bo'yicha yuzaga keladi.

Amaldagi qonunchiligimizda umumiy va maxsus normalar raqobatida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidasi qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan. Shugday bo'lsada nazariy jihatdan shakllantiriladi va sud amaliyotida qo'llaniladi. Jinoyat huquqi normalari raqobati mavjud bo'lgan hollarda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish umumiy va maxsus normalar raqobatida maxsus norma qoidalari qo'llanilishi lozim.

Jinoyat huquqini qo'llash amaliyotini yaxshilash maqsadida jinoyat huquqi normalari raqobati tushunchasini qonun darajasida aniq ifodalash, qism va butun raqobati bo'yicha kvalifikatsiya qoidalari qonunchilikda mustahkamlash hamda sud amaliyotida raqobat va jinoyatlar majmuini aniq farqlashga qaratilgan tushuntirishlar berish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. А.М. Зацепин. Статья. Конкуренция норм уголовного права и квалификация преступлений. Журнал: Российское право: состояние, перспективы, комментарии С. 84.
2. Иногамова-Хегай Л.В. Концептуальные основы конкуренции уголовно-правовых

норм. – м.: норма: инфра-м., 2015. – 288 с.

3. Кудрявцев В.Н. Общая теория квалификации преступлений. М., 2011 С. 225.
4. Семернева Н.К. Квалификация преступлений (части Общая и Особенная). М., 2010. С. 156.
5. Савельева В.С. Основы квалификации преступлений. М., 2006. С. 61.
6. Кузнецова Н.Ф. Проблемы квалификации преступлений. М., 2007. С. 125.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 5 майдаги 13-сонли “Бир неча жиноят содир этилганда қилмишни квалификация қилишга доир масалалар тўғрисида”ги қарори 8-банди.
8. Кузнецова Н.Ф. Проблемы квалификации преступлений. М., 2007. С. 125.
9. Шакин В.Б. Преодоление конкуренции уголовно-правовых норм при квалификации преступлений: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2004.
10. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги 13-сонли “Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарорининг 19-банди.